

## Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash taraqqiyot omili

Yoshlarning startaplari, innovatsion g'oyalari va ularning intilishlarini rag'batlantirish, doimiy qo'llab-quvvatlash bugungi kunda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning eng asosiy tamoyillaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki yoshlarning bunday tashabbuslari, g'oyalarini amalga oshirish bu borada ularning mahoratlari va bilim ko'nikmalarini doimiy oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.



Shu maqsadlarni o'zida mujassam etgan holda, joriy yil 14 oktabr kuni institutimiz talabalari uchun ochiq muloqot tarzida davra suhbatini tashkil etildi. Ushbu davra suhbatida bugungi kunda Iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotgan, Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish boqsharmasi boshlig'i Nematzoda Firdavs Nematovich ishtirok etidi. Tadbirda Nematzoda Firdavs o'zining hayotiy tajribalari, bugungi kunda iqtidorli yoshlarning startap, innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar shuningdek, startap, innovatsion g'oya va loyihalarni tayyorlash tartiblari, ushbu yo'nalishda tashkil etiladigan tanlov va musobaqalarda ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishish uchun qanday omillar muhim ahamiyat kasb etishi borasida talabalarga o'zining maslahatlarini berib o'tdi.



Tadbirda qizg'in savol-javob va muhokamalarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Xususan, hozirda amalga oshirilayotgan loyihalar hamda kelgusida o'tkazilishi rejalashtirilgan tanlov, musobaqalar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, hozirgi vaqtda institutimizning iqtidorli talabalari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, innovatsion ishlanmalar haqida ma'lumot berildi va ayni damda iqtidorli talabalarimiz tomonidan yartilgan maxsus robot kelganlarga taqdimot qilindi.



Quvonarlisi, Respublika miqyosida, startap, innovatsion va boshqa shu kabi loyihalar doirasida tahkil etiladigan tanlov, musobaqalarda institutimizning iqtidorli talabalari, yosh olimlari juda faolligi va yuqori natijalarni egallab kelayotgani kelgan mehmonlar tomonidan alohida e'tirof etildi. Uchrashuv yakunida institut va yoshlar akademiyasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish borasida fikr-mulohazalar aytib o'tildi.

**Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini  
tashkil etish bo'limi axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**